

Toxirov Hamza Bobojonovich



Direktor

Telefon: (65)502-27-20

Qabul kunlari: Dushanbadan jumagacha, har ish kuni soat **09:00** dan **11:00** gacha

E-mail:Shofirkonakm@mail.com

Vazifalari

Markazda yuklangan vazifalarni bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;
Shofirkon tumani hududida joylashgan AKMlari uchun uslubiy rahbarlikni tashkil etadi, ularni faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

Markaz xarajatlar smetasini, shtatlar jadvalini, tarkibiy tuzilmalarning vazifalarini belgilaydi, lavozim yo'riqnomalarini, ichki tartib qoidalariga oid normativ hujjatlarni tasdiqlaydi;

Markazning tasdiqlangan tuzilmasi va xodimlarning cheklangan shtat birliklari soni doirasida o'zgartirishlar kiritadi;

AKM jamg'armasini matbuot nashrlari va elektron resurslar bilan boyitish yo'llarini qidiradi, nashriyotlar va boshqa axborot organlari bilan hamkorlik ishlarini olib boradi;

Markazni bir me'yorda faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida xodimlar va foydalanuvchilar uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi;

Markaz mutaxassislari va xodimlari bilan mehnat shartnomalari (kontrakt) tuzadi va ularning amal qilishini to'xtatadi;

Tasdiqlangan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq Markaz mutaxassislari va xodimlarini rag'batlantirish chora-tadbirlarini ko'radi va ularga intizomiy jazo choralarini qo'llaydi;

Tasdiqlangan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga va AKM nizomiga belgilangan tartibda Markaz mol-mulki va mablag'larini tasarruf etadi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi;

Markaz mutaxassislari va xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va topshiriqlar beradi;

Axborot-kutubxona resurslaridan to'g'ri va samarali foydalanishni nazorat qiladi;

Markaz axborot-kutubxona fondlari, shu jumladan nodir va alohida qimmatga ega nashrlar, mavjud moddiy-texnika bazani belgilangan tartibda saqlash va rivojlantirish, bino, inshootlar, asbob-anjomlar va boshqa mol-mulkni saqlash va ulardan zarur darajada foydalanish uchun javobgardir;

Tasdiqlangan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Tarjimai hol

Toxirov Hamza Bobojonovich

1961 yil – Buxoro viloyati Shofirkon tumanida tug‘ilgan.

Millati – o‘zbek.

Ma’lumoti oliy. 1984 yilda Toshkent davlat madaniyat institutini “Kutubxonashunoslik bibliografiya” mutaxassisligi bo‘yicha tugatgan.

- 1984-1984** yillarda Buxoro viloyati Shofirkon tuman Markaziy kutubxona kutubxonachisi;
- 1986-1987** yillarda Buxoro viloyati Shofirkon tuman Markaziy kutubxona “Xizmat ko‘rsatish” bo‘limi mudiri;
- 1987-1988** yillarda Buxoro viloyati Shofirkon tuman Markaziy kutubxona katta kutubxonachisi;
- 1988-1990** yillarda Buxoro viloyati Shofirkon tuman Markaziy kutubxona sektor mudiri;
- 1990-1991** yillarda Buxoro viloyati Buxoro tuman markazlashgan kutubxonalararo sistemasida “Metodika” bo‘limi kutubxonachisi;
- 1991-1995** yillarda Buxoro viloyati Buxoro tuman markaziy kutubxona tizimi direktori;
- 2005-2006** yillarda Buxoro viloyati Shofirkon tuman “Sho‘robod” fermer xo‘jaligi rahbari;
- 2007-2018** yillarda Buxoro viloyati qishloq xo‘jaligi kasb-hunar kolleji huzuridagi axborot-resurs markazi rahbari;
- 2018-2018** yillarda Buxoro viloyati Shofirkon tuman xalq ta’limi bo‘limi darsliklar bo‘yicha metodist;
- 2018-2019** yillarda Buxoro viloyati qishloq xo‘jaligi kasb-hunar kolleji huzuridagi axborot-resurs markazi rahbari;
- 2019-h.v.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tasarrufidagi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati Shofirkon tuman axborot-kutubxona markazi direktori vazifasini bajaruvchi lavozimida ishlab kelmoqda.

Oilali, uch nafar farzandning otasi.

